

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Madaminjonova Muxlisa Mahmudjon qizi

rizayevaqomarun0@gmail.com

*Andijon davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrası
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san’at darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogika texnologiyalaridan foydalanish usullari, pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish va o’quvchilarga tasviriy san’atni o’qitishda ularni mustaqil fikrlay olish qobiliyatini shakllantirish va jamoaviy tarzda ishlash va teran fikrlash doiralarini kengaytirish haqida to’liq bayon etilgan*

Kalit so’zlar: *kompozitsiya, malbert, epidaskop, manzara, tasviriy san’at, pedagogik texnologiyalar, bo’yoqlar, filmaskop.*

Аннотация: *В данной статье подробно описаны способы использования современных педагогических технологий при организации уроков изобразительного искусства, внедрение процессов обновления педагогики в образовательную практику и формирование у учащихся умения самостоятельно мыслить при обучении изобразительному искусству и расширении кругов коллективной работы и глубокого мышления*

Ключевые слова: *композиция, мальберт, эпидаскоп, пейзаж, изобразительное искусство, педагогическая технология, краски, фильмоскоп.*

Annotation: *this article fully describes the methods of using modern pedagogical technologies in the organization of Fine Arts classes, the application of renewal processes in pedagogy to educational practice and the formation of the ability to independently fix them in teaching fine arts to students and work in a collective way and expand the circle of thoughtful thinking*

Keywords: *composition, malbert, epidascope, landscape, fine arts, pedagogical technologies, paints, filmascope.*

Ma’lumki, bugungi kunda maktab o’quv texnika-vositlari asosan, epidaskop, kodaskop, LETI, filmaskop, televizor, videomagnitafon, kompyuter kabilardan iboratdir. Tasviriy san’atni o’qitishda esa quyidagi jihozlardan foydalaniladi: malbert, taglik, planshet, reflektir kabi qo’shimcha jihozlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu ish jihozlari yordamisiz tasviriy san’at darsini tashkil qilish qiyinroq. Molbertlar yordamida o’quvchilarning rasm chizish uchun moslama hisoblanib darsda yoki darsdan tashqari rasm ishlashda foydalaniladi. Tasviriy san’atni o’qitishda ko’proq epidaskop qo’llaniladi chunki u yordamida tasvirlarni kattalashtirgan holda ko’rish mumkin. Pedagogik

texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidam qat'i nazar, texnologiyalar:

- Pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtacha o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- O'qituvchilar tomonidan o'rqov predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlash;
- O'quvchilardan o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;
- Pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlash zarur.

Zamonaviy ta'lim tashkil etishga qo'yiladigon muhim talablardan biri ortiqcha jismoniy va ruhiy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida samarali natijalarga erishish mumkin. O'quvchilarga darsga qiziqishlarini oshirishda turli interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Fantaziya metodi

Bu metodni zamonaviy interfaol metodi deb ham atash mumkin. Mazkur metod orqali o'quvchilarning dars mashg'ulotlari davomida faolliklarini oshirish, ularni fikrlash doirasini kengaytirish, berilgan topshiriq bo'yicha rang-barang g'oyalarni ifodalash, ko'proq tasavvurlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu metodda o'quvchilarga kichikroq hajmdagi qog'ozlar tarqatiladi, va u qog'ozlarga turli xil shakllar, chiziqlar chizilgan holda beriladi. Bu shakllar yordamida ular o'zlarining tasavvuridan kelib chiqqan holda turli manzara, kompozitsiyalarni fanga bog'lagan holda tasvirlaydilar. Turli bo'yoqlar yordamida ushbu kompozitsiyalarini yakunlaydilar. Dars so'ngida chizilgan ishlariga ta'rif beradilar. Har bir o'quvchi chizilgan ishiga ta'rif berar ekan uning ma'naviy va teran fikrlash doirasi kengayadi. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq. Chunki ushbu metodga o'quvchilarni qiziqtirish va jalb etish o'qituvchiga ham bog'liq.

Ha yoki Yo'q metodi

Ushbu metodga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'quvchilarga fan yuzasidan savollar beriladi ushbu savollarga esa "ha" deb javob bermasliklari kerak. Masalan; "ranglar ikki turga bo'linadimi?", deya savol berilganda ha va yo'q deb javob qaytarmasliklari shart. Ushbu savol yuzasidan ko'proq va aniq ma'lumotlar aytgan holda javoblarini aniqlashtirishlari kerak bo'ladi. Shu ketma-ketlikda o'quvchilar savollarga javob beradilar, ushbu metoddan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 10-15 daqiqadan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metod orqali o'quvchilar fikrlash doirasi kengayadi va o'tkan mavzular yuzasidan bilimlarini mustahkamlaydi.

Mozaika metodi

Mozaika metodida do'skaga A3 formatdagi qog'oz ilinadi. O'quvchilardan biri chiqib o'zi hohlagan narsasini chizadi. Keyingi o'quvchi esa birinchi chiqqan o'quvchi

chizgan rasmini to'ldirgan holda ya'ni uyg'unlashgan holda davom ettirishi kerak bo'ladi. Shu ketma-ketlikda o'quvchilar chiqib bir-birilarini to'ldirgan holatda umumiy bir kompozitsiya hosil qilishadi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni bir-birilarini tushunish, jamoa bo'lib ishlashni o'rganish, qiyin vaziyatlarga tushishsa bilim va malakalarini ishlatgan holda vaziyatdan chiqishni o'rganadilar. Ushbu metod oxirida esa o'quvchilar chizgan rasmini ta'riflab tushuntirib berilishlari ham maqsadga muvofiq holda bo'ladi.

Tasviriy san'atni pedagogik texnologiyasi- bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum darajada san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatmoy oladigon pedagogik jarayon hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turg'unboyev K., Rizayev A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalari". Andijon 2008.
2. I. Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbonova "Tasviriy san'at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari "Oquv uslubiy qo'llanma".
3. Nabiev M., Azimova B. "Rasm chizishga o'rgatish metodikasi". T.:O'qituvchi, 1976.
4. Qo'ziev T., Egamov A., Qanoativ T., Nurqobilov A., "Rangtasvir", "San'at".T., 2003
5. Xasanov R. "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi".T:"FAN",2004
6. Xasanov R. "Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi" Fan dasturi.TDPU- 2007